



UDK:37.018.43:351.851

Toxir ABDURAXMONOV,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: toxirabdurahmonov@gmail.com

USAT dotsenti v.b, PhD R.Rasulov taqrizi asosida

BOLALAR SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARINI KLASSIFIKATSIYASI VA BOSHQARUV TURLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining nazariy asoslari, ularni klassifikatsiya qilish mezonlari hamda boshqaruv turlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda oromgohlar funksional yo'nalishi, mulkchilik shakli, faoliyat davomiyligi va hududiy joylashuviga ko'ra tasniflanadi. Shuningdek, markazlashgan, avtonom va davlat-xususiy sheriklik asosidagi boshqaruv modellarining afzallik va cheklovlari aniqlanadi. Shuningdek, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini ijtimoiy-pedagogik va sog'lomlashtiruvchi institut sifatida baholab, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, klassifikatsiya, boshqaruv modeli, davlat-xususiy sheriklik, rekreatsiya, sog'lom muhit, pedagogik jarayon, monitoring, institutsional boshqaruv, infratuzilma.

CLASSIFICATION AND MANAGEMENT TYPES OF CHILDREN'S HEALTH CAMPS

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of children's health camps, the criteria for their classification, and the types of management systems in a systematic manner. The study classifies camps according to their functional orientation, ownership form, duration of operation, and territorial location. It also identifies the advantages and limitations of centralized, autonomous, and public-private partnership management models. Furthermore, children's health camps are evaluated as socio-pedagogical and health-promoting institutions, and practical recommendations are proposed to enhance their effectiveness. The research findings provide a scientific basis for improving management efficiency and developing regulatory and organizational mechanisms in this field.

Key words: Children's health camps, classification, management model, public-private partnership, recreation, healthy environment, pedagogical process, monitoring, institutional management, infrastructure.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ВИДЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕТСКИМИ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫМИ ЛАГЕРЯМИ

Аннотация

В данной статье системно анализируются теоретические основы детских оздоровительных лагерей, критерии их классификации и виды управленческих моделей. В исследовании лагеря классифицируются по функциональному направлению, форме собственности, продолжительности деятельности и территориальному расположению. Также определяются преимущества и ограничения централизованной, автономной и государственно-частной моделей управления. Детские оздоровительные лагеря рассматриваются как социально-педагогические и оздоровительные институты, а также предлагаются рекомендации по повышению их эффективности. Результаты исследования создают научную основу для совершенствования системы управления и нормативно-правовых механизмов в данной сфере.

Ключевые слова: Детские оздоровительные лагеря, классификация, модель управления, государственно-частное партнёрство, рекреация, здоровая среда, педагогический процесс, мониторинг, институциональное управление, инфраструктура.

Kirish. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari zamonaviy jamiyatda nafaqat dam olish maskani, balki bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalar ta'sirida bolalar hayot tarzida jismoniy faollikning kamayishi, ochiq havoda o'yin va muloqot imkoniyatlarining qisqarishi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sog'lomlashtirish oromgohlari bolalar salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yozgi mavsumda tashkil etiladigan oromgohlar bolalarning organizmini chiniqtirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda sog'lom turmush tarziga oid odatlarni mustahkamlashda samarali mexanizm hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash tizimi kompleks yondashuvni talab etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bolalar va o'smirlar salomatligini ta'minlashda sog'lom muhit, jismoniy faollik va psixologik qo'llab-quvvatlashning uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlaydi. Xususan, tashkilot hisobotida: "Maktab va jamoat muassasalarida sog'lom muhit yaratish bolalar salomatligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir" deb qayd etilgan[1].

Ushbu fikr bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining institutsional ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shu bois bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini ilmiy mezonlar asosida klassifikatsiya qilish va boshqaruv turlarini tizimli ravishda tahlil etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu masalani nazariy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan bo'lib, oromgohlar faoliyatini

takomillashtirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining klassifikatsiyasi va boshqaruv turlarini ilmiy asosda tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tizimli, strukturaviy-funksional va institutsional yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv oromgohlarni yagona ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish, ularning ichki elementlari (boshqaruv, pedagogik jarayon, sog'lomlashtirish dasturi, infratuzilma) o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi. Strukturaviy-funksional tahlil esa har bir boshqaruv modelining funksional samaradorligini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqot obyekti sifatida bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining tashkiliy-boshqaruv tizimi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ularning klassifikatsiya mezonlari va boshqaruv modellarining institutsional xususiyatlaridan iborat. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, ilmiy maqolalar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Xususan, bolalar salomatligini mustahkamlashga oid konseptual yondashuvlar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti materiallari asosida o'rganildi. WHO tomonidan ilgari surilgan "Health Promoting Settings" konsepsiyasida sog'lom muhitni yaratish institutsional boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlanadi [2]. Ushbu konsepsiya oromgohlarni nafaqat dam olish maskani, balki sog'lomlashtiruvchi muhit sifatida baholash metodologik asosini berdi.

Tadqiqot jarayonida komparativ (taqqoshlama) tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul orqali turli mamlakatlarda bolalar oromgohlarini boshqarish amaliyoti, moliyalashtirish manbalari va nazorat mexanizmlari o'rganildi. Xalqaro meyoriy hujjatlar, jumladan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida bolalarning dam olish va sog'lom rivojlanish huquqi alohida qayd etilgan metodologik jihatdan muhim asos bo'lib xizmat qildi. Konvensiyaning 31-moddasida: "Ishtirokchi davlatlar bolaning dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, madaniy hayotda erkin ishtirok etish huquqini tan oladi" deb belgilangan [3]. Mazkur norma oromgohlar faoliyatini baholashda huquqiy mezon sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda institutsional tahlil metodi orqali boshqaruv modellarining samaradorligi baholandi. Bunda markazlashgan, avtonom va davlat-xususiy sheriklik asosidagi boshqaruv tizimlari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Institutsional yondashuv D. North tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlarga tayangan holda, boshqaruv tizimlarini "rasmiy va norasmiy qoidalarni majmui" sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. North ta'kidlashicha, "institutlar jamiyatdagi o'yin qoidalarini belgilaydi va ular iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi" [4]. Ushbu yondashuv oromgohlar boshqaruvining normativ-huquqiy va tashkiliy asoslarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Empirik jihatdan esa mavjud statistik ma'lumotlar va ochiq axborot manbalari asosida sifat tahlili amalga oshirildi. Tahlil mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi: boshqaruv modeli turi, moliyalashtirish manbasi, infratuzilma darajasi, sanitariya va xavfsizlik ko'rsatkichlari, pedagogik dastur mavjudligi. Olingan ma'lumotlar klassifikatsiya mezonlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini ko'p o'lchamli tizim sifatida o'rganish, ularning boshqaruv mexanizmlarini ilmiy asosda tasniflash va samaradorlik mezonlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini tizimli ravishda klassifikatsiya qilish va ularning boshqaruv modellarini ilmiy mezonlar asosida ajratish imkonini berdi.

O'rganish jarayonida aniqlanishicha, mavjud amaliyotda oromgohlar turli mezonlar asosida faoliyat yuritadi, biroq ularning yagona standartlashtirilgan tasnifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois tadqiqot doirasida to'rtta asosiy klassifikatsiya mezonini taklif etildi: funksional yo'nalishi, mulkchilik shakli, faoliyat davomiyligi va hududiy joylashuvi.

Birinchi mezon – funksional yo'nalishiga ko'ra tasniflash natijasida oromgohlar sog'lomlashtirish, sport, ixtisoslashgan (til, IT, san'at), hamda reabilitatsion turlarga ajratildi. Sog'lomlashtirish oromgohlari umumiy jismoniy chiniqtirish va dam olishni ko'zlasa, sport oromgohlari maqsadli mashg'ulotlar va musobaqalarga yo'naltirilgan. Ixtisoslashgan oromgohlar esa bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. Reabilitatsion oromgohlar sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti sog'lomlashtirish muassasalarida jismoniy faollik va psixologik qo'llab-quvvatlashni integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi [5]. Mazkur tavsiya oromgohlarni faqat dam olish maskani sifatida emas, balki sog'lom muhitni shakllantiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish lozimligini ko'rsatadi.

Ikkinchi mezon – mulkchilik shakliga ko'ra tasniflash. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oromgohlar davlat, xususiy, idoraviy hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida faoliyat yurituvchi turlarga ajratildi. Davlat oromgohlari markazlashgan boshqaruv va budjet moliyalashtirish asosida ishlaydi. Xususiy oromgohlar xizmat sifati va infratuzilma jihatidan moslashuvchanlikka ega bo'lsa-da, narx siyosatida differensial yondashuv kuzatiladi. Davlat-xususiy sheriklik modeli esa infratuzilmani rivojlantirish va investitsiya jalb etishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon banki hisobotida DXSH modeli ijtimoiy infratuzilma sohasida resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi qayd etilgan [6]. Ushbu yondashuv bolalar oromgohlarini boshqarishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhim natija sifatida baholandi.

Uchinchi mezon – faoliyat davomiyligiga ko'ra tasniflash. Tahlil natijalari yozgi mavsumiy oromgohlar eng keng tarqalgan shakl ekanini ko'rsatadi. Biroq yil davomida faoliyat yurituvchi oromgohlar bolalar salomatligini tizimli qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy faollik bilan muntazam shug'ullanish bolalar sog'lig'ini mustahkamlashda barqaror ijobiy natija beradi [7]. Shu sababli yil davomida faoliyat yurituvchi oromgohlar modelini rivojlantirish istiqbolli yo'nalish sifatida belgilandi.

To'rtinchi mezon – hududiy joylashuv. Tadqiqot natijalari tog', o'rmon va suv havzalari yaqinidagi oromgohlar ekologik jihatdan qulay sharoitga ega ekanini ko'rsatadi. Ekologik omillar bolalarning jismoniy va ruhiy tiklanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sanitariya-gigiyena standartlariga qat'iy rioya etish samaradorlikning asosiy omillaridan biri sifatida aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini kompleks tasniflash va boshqaruv tizimlarini tizimli baholash imkonini berdi hamda ularni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratdi.

Muhokama. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini klassifikatsiya qilish va boshqaruv modellarini tizimli ajratish ularning samaradorligini baholashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Biroq ushbu natijalarni kengroq ijtimoiy va institutsional kontekstda tahlil qilish zarur. Avvalo, oromgohlarning funksional yo'nalishiga ko'ra ajratilishi (sog'lomlashtirish, sport, ixtisoslashgan, reabilitatsion) ularning maqsadli natijalarini aniqlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv boshqaruv tizimiga resurslarni optimal

taqsimlash va dasturlarni moslashtirish imkonini yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar muassasalarida sog'lom muhit yaratish kompleks yondashuvni talab etadi. UNESCO hisobotida ta'kidlanishicha, "bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan ta'limiy va rekreatsion muhit ularning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" [8]. Bu fikr oromgohlarni faqat dam olish maskani emas, balki ijtimoiy-pedagogik institut sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Boshqaruv modellarini muhokama qilish jarayonida markazlashgan va avtonom tizimlarning ustun hamda zaif tomonlari aniqlandi. Markazlashgan model standartlashtirish va nazoratni ta'minlashda, ba'zan byurokratik jarayonlarning ortishi samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Avtonom model esa moslashuvchanlikni kuchaytiradi, biroq moliyaviy barqarorlik va nazorat mexanizmlarini mustahkamlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli muqobil mexanizm sifatida e'tirof etildi. OECD tadqiqotlarida ijtimoiy infratuzilma sohasida sheriklik modeli innovatsion boshqaruvni rivojlantirish va xizmat sifatini oshirishga yordam berishi qayd etilgan [9]. Bu esa bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida infratuzilma modernizatsiyasi va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun DXSH modelini kengaytirish istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ekologik omillarning ahamiyatini ham tasdiqladi. Tog' va o'rmon hududlarida joylashgan oromgohlar bolalar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, tabiiy muhitda jismoniy faollik bolalarda stress darajasini kamaytiradi va immun tizimini mustahkamlaydi [10]. Shu bois oromgohlarni hududiy joylashuviga ko'ra rejalashtirishda ekologik omillarni hisobga olish strategik ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan boshqaruv modeli zarurligini ko'rsatadi. Bunda normativ-huquqiy tartibga solish, iqtisodiy barqarorlik,

ekologik omillar va pedagogik samaradorlik o'zaro uyg'un holda ko'rib chiqilishi kerak. Tadqiqot natijalari kelgusida oromgohlar faoliyatini standartlashtirish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Xulosa. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini ilmiy asosda klassifikatsiya qilish va ularning boshqaruv modellarini tizimli tahlil etish orqali ushbu sohaning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar oromgohlari zamonaviy jamiyatda nafaqat dam olish maskani, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash va bolalarning jismoniy-ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi kompleks ijtimoiy-pedagogik institut sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois ularning faoliyatini tasniflash va boshqaruv tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv modellarini tahlil qilish natijasida markazlashgan, avtonom va davlat-xususiy sheriklik asosidagi tizimlarning o'ziga xos afzallik va cheklovlari aniqlandi. Markazlashgan model standartlashtirish va nazoratni ta'minlash, avtonom model moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik modeli esa infratuzilmani modernizatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, samarali boshqaruv faqat tashkiliy struktura bilan emas, balki monitoring tizimi, xavfsizlik standartlari, sanitariya talablari va pedagogik dasturlar sifati bilan ham belgilanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish va ularni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Kelgusida ushbu sohada empirik tadqiqotlarni kengaytirish, statistik ma'lumotlar asosida samaradorlikni chuqur tahlil qilish hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Global Accelerated Action for the Health of Adolescents (AA-HA!): Guidance to Support Country Implementation. – Geneva: WHO, 2017. – P. 24.
2. World Health Organization. Health Promotion Glossary. – Geneva: WHO, 1998. – P. 19.
3. United Nations. Convention on the Rights of the Child. – New York: United Nations, 1989. – Article 31.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – P. 3.
5. World Health Organization. Global Recommendations on Physical Activity for Health. – Geneva: WHO, 2010. – P. 20.
6. World Bank. Public-Private Partnerships Reference Guide. – Washington, DC: World Bank, 2017. – P. 15.
7. OECD. Education and Health at a Glance. – Paris: OECD Publishing, 2019. – P. 67.
8. UNESCO. Happy Schools: A Framework for Learner Well-being in the Asia-Pacific. – Bangkok: UNESCO, 2016. – P. 12.
9. OECD. Principles for Public Governance of Public-Private Partnerships. – Paris: OECD Publishing, 2012. – P. 9.
10. World Health Organization. Urban Green Spaces and Health: A Review of Evidence. – Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2016. – P. 18.
11. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.
12. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth //Академические исследования в современной науке. – 2024. – T. 3. – №. 48. – C. 124-132.
13. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505."
14. Odilovich R.R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
15. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri." International Journal of Scientific Research 2 (2023): 147-152.
16. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.171.
17. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo 'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.

-
18. Rasulov R. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri." «ACTA NUUZ» 1.1.4. 1 (2025): 169-171.
 19. Tursunov O., Rasulov R.O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: c# winforms asosida kalkulyator modeli //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 19. – С. 23-26.